KOKAND UNIVERSITY HERALD SCIENTIFIC E-JOURNAL
ISSN: 2181-1695

QO‘QON UNIVERSITETI XABARNOMASI
KOKAND UNIVERSITY HERALD
ВЕСТНИК КОКАНДСКОГО УНИВЕРСИТЕТА

OAK: 01-08/1819/6

www.herald.kokanduni.uz

# MAKONIY IDENTITET HAQIDA MULOHAZALAR

**Qodirov Abdulazizbek Luqmonjon o‘g‘li**,
Qo‘qon universiteti Andijon filiali dotsenti, PhD
Abdulazizzzkodirov@gmail.com
DOI: https://doi.org/10.54613/adjkgf20

**MAQOLA HAQIDA/ О СТАТЬЕ**

**Qabul qilindi:** 2-oktabr 2026-yil
**Tasdiqlandi:** 5-oktabr 2026-yil
**Jurnal soni:** 19-B
**Maqola raqami:** 50

**KALIT SO‘ZLAR/ КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА**

makoniy identitet, place-identity, badiiy makon, joy, Vatan, uy, xotira, mansublik, xronotop, geokritika, begonalashuv, o‘zlik

**ANNOTATSIYA/ АННОТАЦИЯ**

Maqolada makoniy identitet tushunchasining nazariy mazmuni hamda uning badiiy adabiyotdagi asosiy vazifalari tahlil qilinadi. Ingliz tilidagi ilmiy adabiyotlarda place-identity sifatida shakllangan tushuncha shaxsning muayyan joy, hudud, uy, Vatan yoki madaniy makon bilan bog‘liq xotira, mansublik va o‘zlik tasavvurlarini ifodalashi bilan izohlanadi. Adabiy matnda esa makon faqat voqea sodir bo‘ladigan fon emas, balki qahramonning kimligini belgilovchi, uning xotirasini faollashtiruvchi, qadriyatlarini tartibga soluvchi va “o‘z–begona” munosabatini yuzaga chiqaruvchi semantik tizim sifatida namoyon bo‘ladi. Tadqiqotda H. Proshansky, A. Fabian va R. Kaminoffning place-identity konsepsiyasi, Yi-Fu Tuanning makon va joy haqidagi fenomenologik qarashlari, G. Bachelardning intim makon poetikasi, E. Relphning joy va joysizlik talqini, H. Lefebvrening makonning ijtimoiy ishlab chiqarilishi haqidagi nazariyasi, M. Baxtinning xronotop konsepsiyasi hamda B. Westphal va R. T. Tallyning geokritik yondashuvlari metodologik tayanch sifatida qo‘llanadi. Maqolada badiiy makonning uy, Vatan, mahalla, shahar, yo‘l, chegara va g‘urbat kabi modellari ajratilib, ularning identifikatsion, mnemonik, aksiologik, psixologik-emotsional, narrativ-kompozitsion, chegaraviy-differensial va transformativ funksiyalari tizimlashtiriladi. Tahlil natijasida makoniy identitet qahramon yoki lirik subyektning tayyor xususiyati emas, balki makon bilan kechadigan tajriba, xotira, yo‘qotish, qaytish, ko‘chish va mansublik jarayonlarida shakllanuvchi dinamik poetik hodisa ekani asoslanadi.

**ABOUT THE PAPER**

**Accepted:** 2 October 2026
**Approved:** 5 October 2026
**Volume:** 19-B
**Paper number:** 50

**KEYWORDS**

spatial identity, place-identity, literary space, place, homeland, home, memory, belonging, chronotope, geocriticism, alienation, selfhood

**ANNOTATION**

This article examines the theoretical content of spatial identity and its major functions in literary texts. The concept known in English-language scholarship as place-identity refers to the memories, attachments, affiliations, and perceptions of self that connect a person with a particular place, territory, home, homeland, or cultural environment. In literature, however, space is not merely a background in which events occur; it becomes a semantic system that helps define a character’s selfhood, activates memory, organizes values, and constructs the opposition between the familiar and the alien. The study draws on the place-identity concept developed by Harold Proshansky, Abbe Fabian, and Robert Kaminoff; Yi-Fu Tuan’s phenomenology of space and place; Gaston Bachelard’s poetics of intimate space; Edward Relph’s theory of place and placelessness; Henri Lefebvre’s concept of socially produced space; Mikhail Bakhtin’s chronotope; and the geocritical approaches of Bertrand Westphal and Robert T. Tally Jr. The article identifies such literary models of space as home, homeland, neighborhood, city, road, border, and exile, and systematizes their identificational, mnemonic, axiological, psychological-emotional, narrative-compositional, boundary-differential, and transformative functions. The analysis demonstrates that spatial identity should be understood not as a fixed attribute of a character or lyrical subject, but as a dynamic poetic phenomenon formed through lived space, memory, displacement, return, loss, movement, and belonging.

**Kirish**

Zamonaviy gumanitar tafakkurda shaxs identiteti faqat ichki psixologik barqarorlik yoki ijtimoiy rol bilan belgilanmaydi. Inson o‘zini muayyan tarix, til, xotira va qadriyatlar bilan bir qatorda yashagan, tark etgan, sog‘ingan yoki qaytishga intilgan makonlar orqali ham anglaydi. Shu sababli so‘nggi o‘n yilliklarda makon va identitet munosabati geografiya, sotsiologiya, ekologik psixologiya, antropologiya, madaniyatshunoslik hamda adabiyotshunoslikning umumiy tadqiqot maydoniga aylandi. H. Proshansky, A. Fabian va R. Kaminoff tomonidan tizimli ravishda ishlab chiqilgan place-identity konsepsiyasi shaxs o‘zligining muhim qatlamlaridan biri jismoniy muhit bilan bog‘liq tasavvurlar, xotiralar, qadriyatlar va tajribalar yig‘indisidan tarkib topishini ko‘rsatadi [1, 57–83]. Bunday yondashuv makonni insondan tashqaridagi betaraf koordinata emas, balki o‘zlikni shakllantiruvchi faol omil sifatida ko‘rish imkonini beradi.

Adabiyot uchun bu masala alohida ahamiyatga ega. Chunki badiiy matnda har qanday qahramon muayyan makonda mavjud bo‘ladi va o‘sha makon bilan munosabatga kirishadi. Uy, hovli, mahalla, ko‘cha, qishloq, shahar, yo‘l, cho‘l, tog‘, chegara, Vatan yoki g‘urbat kabi obrazlar qahramonning ruhiy holatini shunchaki bezab turmaydi; ular uning xotirasini, mansublik hissini, ijtimoiy maqomini, qadriyatlar tizimini va o‘zini anglash tarzini

shakllantiradi. Shu ma’noda badiiy makon personaj identitetining semantik tarkibiy qismiga aylanadi. Ayniqsa ko‘chish, migratsiya, surgun, hijrat, g‘urbat, urush yoki tarixiy burilishlar tasvirlangan asarlarda makon almashishi shaxsning “men kimman?” degan savoliga yangicha mazmun beradi. Qahramon boshqa joyga ko‘chgan sari uning eski makon bilan bog‘liq xotiralari kuchayishi, yangi muhit esa o‘zlikning qayta qurilishiga sabab bo‘lishi mumkin.

Maqolada “makoniy identitet” termini ingliz tilidagi place-identity tushunchasiga aynan tenglashtirilmaydi. Place-identity ko‘proq shaxsning konkret joy bilan psixologik va ijtimoiy bog‘liqligini ifodalasa, adabiyotshunoslik nuqtayi nazaridan makoniy identitet tushunchasi kengroq qo‘llanadi: u real yoki badiiy makonning qahramon, lirik subyekt yoki jamoaviy “biz”ning o‘zini anglashiga ta’sirini, makon orqali “o‘z–begona”, “markaz–chekka”, “uy–g‘urbat”, “Vatan–chet” singari qarama-qarshiliklarning yuzaga kelishini ham qamrab oladi. Mazkur maqolaning maqsadi makoniy identitetning nazariy chegaralarini aniqlash, badiiy adabiyotda makonning identitetni shakllantiruvchi mexanizmlarini tavsiflash va uning asosiy poetik funksiyalarini tizimlashtirishdan iborat.

**Adabiyotlar sharhi**

Makon va o‘zlik munosabatini nazariy jihatdan tushuntirishda bir necha ilmiy yo‘nalishlar o‘zaro tutashadi. Ekologik psixologiya doirasida H. Proshansky, A. Fabian va R. Kaminoff place-identityni self-identity tarkibiy qismi sifatida izohlab, jismoniy muhitga doir bilim, xotira, hissiy munosabat va qadriyatlar shaxsning o‘zini anglashiga bevosita kirishini asosladilar [1, 57–83]. Mazkur yondashuv adabiyotshunoslik uchun ham muhim, chunki badiiy qahramonning makonga munosabati uning shaxsiy tarixidan ajratib bo‘lmaydigan semantik qatlam sifatida namoyon bo‘ladi.

Yi-Fu Tuan “Space and Place: The Perspective of Experience” asarida makon va joy o‘rtasidagi farqni inson tajribasi orqali yoritadi. Uning talqinida joy xavfsizlik, yaqinlik va mansublik bilan, makon esa harakat va imkoniyat bilan bog‘lanadi; uy, mahalla va Vatanga bo‘lgan hissiy bog‘liqlik insonning dunyoni idrok etishida muhim o‘rin tutadi [2, 149-160]. Badiiy adabiyotda ham “joy” ko‘pincha qahramonning o‘zini taniydigan, tarixini eslaydigan va ruhiy tayanch topadigan makonga aylansa, ochiq yoki noma’lum makon sinov, xavf, erkinlik va o‘zgarish bilan bog‘lanadi. Shu sabab uy va yo‘l obrazlarining qarama-qarshiligi ko‘plab asarlarda identitetning barqaror va dinamik tomonlarini bir vaqtda yoritadi.

Gaston Bachelardning “The Poetics of Space” tadqiqoti badiiy makonning intim va xotiraviy tabiatini ochishda alohida ahamiyatga ega. Olim uy, xona, burchak, sandiq, tom, yerto‘la kabi kundalik makonlarni inson xotirasi va tasavvurining ichki tuzilishi bilan bog‘laydi [3, 3-37]. Bu qarashdan kelib chiqilganda, adabiy matndagi uy oddiy me’moriy obyekt emas: u bolalik, himoya, avlod xotirasi, yo‘qotish, qo‘rquv yoki qaytish istagining timsoliga aylanishi mumkin. Bachelardning tashqi va ichki makon dialektikasiga bag‘ishlangan mulohazalari ham qahramonning ichki “men”i bilan tashqi dunyo o‘rtasidagi chegarani tahlil qilish imkonini beradi [3, 211-231].

Adabiyotshunoslikda M. Baxtinning xronotop haqidagi konsepsiyasi makon va vaqtning syujet, janr hamda qahramon taqdiridagi birligini tushuntiradi. Baxtin yo‘l, uchrashuv, chegara, qal’a, salon singari xronotoplarning voqealar va qahramonlar o‘zgarishidagi rolini ko‘rsatadi [6, 84-258]. Makoniy identitetni tadqiq etishda xronotop yondashuvi ayniqsa muhim: qahramonning kimligi faqat qayerda turgani bilan emas, qaysi makonda qanday vaqt tajribasini boshdan kechirayotgani bilan ham belgilanadi. Safar makoni shaxsni o‘zgartiradi, uyga qaytish esa vaqt va xotirani birlashtirgan holda identitetni qayta baholashga olib keladi.

XXI asr adabiyotshunosligida geokritika va “spatial turn” makon masalasini yanada markazlashtirdi. Bertrand Vestphal real va tasavvuriy makon o‘rtasidagi munosabatni, bir joyning turli matnlarda turlicha qurilishini geokritik tahlilning obyekti sifatida belgilaydi [7]. Robert T. esa adabiy matnni muayyan ma’noda “xaritalash” amaliyoti sifatida ko‘rib, badiiy narrativning makon yaratish xususiyatiga e’tibor qaratadi [8]. O‘zbek adabiyotshunosligida D. Quronov badiiy asarning makon-zamon tashkiloti, sujet va obrazlar tizimi bilan bog‘liq nazariy masalalarni yoritib, badiiy makonni matnning strukturaviy tarkibiy qismi sifatida o‘rganishga zamin yaratadi [9]. Ushbu nazariy qarashlarning mushtarak nuqtasi shundaki, makon voqea fonidan ko‘ra kengroq estetik va antropologik mazmunga ega.

**Tadqiqot metodologiyasi**

Tadqiqotda germenevtik, struktur-semantik, fenomenologik, xronotopik va geokritik yondashuvlardan foydalanildi. Germenevtik tahlil makon obrazlarida yashiringan mansublik, xotira, yo‘qotish va “o‘z–begona” mazmunlarini sharhlashga xizmat qildi. Struktur-semantik metod yordamida uy, Vatan, mahalla, shahar, yo‘l, chegara va g‘urbat singari makon modellarining badiiy matndagi o‘zaro aloqasi hamda identitetni ifodalashdagi vazifalari tizimlashtirildi. Fenomenologik yondashuv makonni qahramon tomonidan yashab ko‘riladigan, hissiy va xotiraviy tajribaga aylangan joy sifatida talqin qilishga imkon berdi.

Xronotopik tahlil makoniy identitetning vaqt bilan bog‘liqligini aniqlash uchun qo‘llanildi. Chunki uyga qaytish, yo‘lga chiqish, g‘urbatda yashash yoki eski makonni eslash holatlarida identitet faqat geografik nuqtaga emas, balki o‘tmish, hozir va kelajakning o‘zaro munosabatiga tayangan holda quriladi. Geokritik yondashuv esa real geografik makon bilan uning badiiy reprezentatsiyasi o‘rtasidagi farqni hisobga olishga, bir xil hududning turli mualliflar yoki turli qahramonlar tomonidan turlicha idrok etilishini ko‘rsatishga xizmat qildi.

Tadqiqot obyekti sifatida badiiy adabiyotda shaxs va makon munosabatini ifodalovchi poetik va narrativ modellar olindi. Tadqiqot predmeti esa makonning personaj yoki lirik subyekt identitetini shakllantirish, saqlash, sinash va o‘zgartirishdagi funksiyalaridan iborat. Maqola nazariy xarakterga ega bo‘lib, o‘zbek adabiyotidan Bobur lirikasidagi Vatan–g‘urbat oppozitsiyasi, jadid adabiyotidagi Vatan va milliy makon, Abdulla Qodiriy nasridagi tarixiy shahar muhitlari, zamonaviy she’riyatdagi uy, shahar, yo‘l va begona makon obrazlari umumlashtiruvchi misollar sifatida olinadi. Maqsad alohida asarni to‘liq tahlil qilish emas, balki turli matnlarda takrorlanuvchi makoniy identitet mexanizmlarini aniqlashdir.

**Natijalar**

Tahlil makoniy identitet badiiy adabiyotda bir necha o‘zaro bog‘liq poetik funksiyalarni bajarishini ko‘rsatdi. Avvalo, makon identifikatsion vazifani bajaradi. Qahramonning “men kimman?” degan savoliga ko‘pincha “qayerga mansubman?” savoli hamroh bo‘ladi. Shu sabab uy, mahalla, qishloq, shahar yoki Vatan obrazlari shaxsning o‘zini ma’lum bir madaniy va tarixiy jamoaga mansub deb bilishiga xizmat qiladi. Badiiy matnda makon nomining o‘zi ham personajning ijtimoiy va madaniy koordinatalarini belgilashi mumkin. Masalan, milliy adabiyotda Vatan timsoli ko‘pincha geografik hududdan kengroq ma’noga ega bo‘lib, til, tarix, ajdod xotirasi va ma’naviy qadriyatlarning birlashgan belgisi sifatida namoyon bo‘ladi.

Makoniy identitetning ikkinchi muhim vazifasi mnemonik, ya’ni xotirani tashkil etish funksiyasidir. Shaxs ko‘pincha o‘tmishini joylar orqali eslaydi: bolalik uyi, hovli, daraxt, ko‘cha, maktab, qishloq, daryo yoki mahalla xotiraning tayanch nuqtalariga aylanadi. Bunday makonlar badiiy matnda vaqtni “saqlaydi”. Qahramon eski joyga qaytganda, voqelik faqat hozirgi ko‘rinishi bilan emas, avvalgi hayot qatlamlari bilan birga idrok etiladi. Shu bois

makon xotira bilan tutashganida identitetning davomiyligini ta’minlaydi. Agar joy yo‘qolsa, buzilsa yoki qahramon undan uzoqlashsa, xotira makonning ramziy o‘rnini egallaydi va yo‘qotilgan makon ichki, ruhiy makonga ko‘chadi.

Uchinchi vazifa aksiologik funksiyadir. Badiiy makonlar qadriyat nuqtayi nazaridan teng emas: “uy” xavfsizlik va yaqinlikni, “begona shahar” notanishlikni, “muqaddas joy” ruhiy yuksalishni, “chekka” ijtimoiy chetlatilishni, “Vatan” esa mansublik va mas’uliyatni anglatishi mumkin. Albatta, bu ma’nolar har bir asarda bir xil emas. Yozuvchi ayni makonni ijobiy yoki salbiy qayta kodlashi mumkin. Muhim jihat shundaki, makon badiiy matnda qahramonning qadriyatlar ierarxiyasini tashqi shaklda namoyon etadi. Qaysi joyga intilishi, qaysi makondan qochishi, qayerga qaytishni orzu qilishi uning ichki axloqiy va hissiy yo‘nalishini ochadi.

To‘rtinchi vazifa psixologik-emotsional funksiyadir. Makon qahramonning ruhiy holatini ko‘rsatish va chuqurlashtirishda faol ishtirok etadi. Tor xona, yopiq eshik, bo‘sh ko‘cha, begona shahar, cheksiz cho‘l yoki uzoq yo‘l personajning qo‘rquv, yolg‘izlik, erkinlik, iztirob yoki umid holatlarini konkretlashtiradi. Bu holatda makon tashqi dekoratsiya emas, ruhiy kechinmaning “tashqi shakli” sifatida ishlaydi. Bachelard ta’kidlagan intim makonlar ayniqsa bolalik, xavfsizlik va xotira bilan bog‘liq hissiy qatlamlarni ochadi [3]. Relph talqinidagi joysizlik esa zamonaviy qahramonning begonalashuvini tushuntirishga yordam beradi [4].

Beshinchi vazifa narrativ-kompozitsion funksiyadir. Makon syujet harakatini boshlaydi, cheklaydi yoki o‘zgartiradi. Qahramon uyidan chiqadi, yo‘lga tushadi, chegarani kesib o‘tadi, begona shaharga kiradi, qaytadi yoki qaytolmaydi. Har bir makon almashinuvi voqealar rivojiga ta’sir qilishi bilan birga identitetning yangi bosqichini yuzaga keltiradi. Baxtinning yo‘l xronotopi haqidagi qarashlari shuni ko‘rsatadiki, safar davomida tasodifiy uchrashuvlar, sinovlar va tanlovlar qahramon taqdirini o‘zgartiradi [6]. Demak, makoniy identitet syujetning natijasi bo‘lishi bilan birga, syujetni harakatga keltiruvchi mexanizm hamdir.

Oltinchi vazifa chegaraviy-differensial funksiyadir. Identitet ko‘pincha farq orqali aniqlanadi: “bizniki” va “begona”, “ichkari” va “tashqari”, “markaz” va “chekka”, “Vatan” va “g‘urbat”, “qishloq” va “shahar” kabi makoniy oppozitsiyalar qahramonning o‘zini boshqalardan ajratish mexanizmini yaratadi. Chegara bu jihatdan faqat geografik chiziq emas, balki ijtimoiy, madaniy va ruhiy farq timsolidir. Qahramon chegaradan o‘tganida eski identiteti sinovdan o‘tadi: yangi muhit uning odatlari, tili, xotirasi va qadriyatlarini qayta ko‘rib chiqishga majbur qiladi. Shu sabab chegara va o‘tish makonlari identitetning eng faol poetik nuqtalaridan biridir.

Yettinchi vazifa transformativ funksiyadir. Makon faqat mavjud identitetni ifodalab qolmay, uni o‘zgartiradi. Migratsiya, hijrat, surgun, safar yoki uzoq muddatli g‘urbat shaxsning oldingi o‘zlik modelini barqaror saqlab qolishni qiyinlashtiradi. Yangi joyga moslashish jarayonida qahramon eski makon bilan xotiraviy aloqani saqlashi, yangi makonning me’yorlarini qabul qilishi yoki ikki makon oralig‘ida “oraliq” identitetga ega bo‘lishi mumkin. Badiiy adabiyotda aynan mana shu oraliq holat murakkab ichki dialog, ikkilanma mansublik va begonalashuvni yuzaga chiqaradi. Shunday qilib, makoniy identitet statik emas, balki harakat va tajriba davomida qayta quriladigan dinamik hodisadir.

O‘zbek adabiyoti tarixida Vatan-g‘urbat oppozitsiyasi makoniy identitetning eng qadimiy va barqaror shakllaridan biridir. Bobur lirikasida vatandan uzoqlik shaxsiy iztirob bilan birga o‘zlikni xotira orqali saqlash mexanizmini kuchaytiradi. Jadid adabiyotida Vatan makoni individual sog‘inchdan kengayib, milliy uyg‘onish, til va tarix bilan bog‘liq jamoaviy identitet timsoliga aylanadi. Abdulla Qodiriy nasrida tarixiy shahar muhiti personajlarning ijtimoiy mavqei, qadriyatlari va zamon bilan munosabatini ochishga xizmat qiladi. Zamonaviy she’riyat va nasrda esa uy, shahar, chekka, yo‘l va begona makonlar shaxsning globallashuv, urbanizatsiya va ichki begonalashuv sharoitida o‘zini izlash jarayonlarini ifodalashda faol poetik vositaga aylanmoqda.

**Muhokama**

Makoniy identitet tushunchasining adabiyotshunoslikdagi ahamiyati shundaki, u qahramon yoki lirik subyektni faqat psixologik xususiyatlar yig‘indisi sifatida ko‘rishdan saqlaydi. Shaxsning o‘zligi har doim ma’lum bir joy, tarix va madaniy tajriba bilan aloqada yuzaga keladi. Biroq badiiy matnda bu aloqa real hayotdagi joyga sodda nusxa sifatida ko‘chirilmaydi. Yozuvchi geografik makonni tanlaydi, qisqartiradi, kengaytiradi, ramziylashtiradi yoki unga yangi aksiologik ma’no yuklaydi. Shu bois badiiy makon real makon bilan bog‘liq bo‘lsa ham, estetik jihatdan mustaqil semantik tizimdir.

Makonning identitetga ta’siri bir yo‘nalishli jarayon ham emas. Bir tomondan, makon qahramonni shakllantiradi; ikkinchi tomondan, qahramon o‘z xotirasi va tajribasi orqali makonga ma’no beradi. Yi-Fu Tuan ta’kidlagan tajribaviy yondashuv aynan shu ikki tomonlama munosabatni tushuntirish imkonini beradi [2]. Bir xil shahar ikki qahramon uchun mutlaqo boshqa joy bo‘lishi mumkin: biri uchun u erkinlik va imkoniyat, boshqasi uchun esa yolg‘izlik va begonalik makonidir. Geokritika ham joyning bitta qat’iy ma’noga ega emasligini, uning turli nigohlar orqali qayta-qayta yaratilishini ta’kidlaydi [7].

Makoniy identitetning yana bir muhim tomoni uning jamoaviy xarakteridir. “Vatan”, “mahalla”, “qishloq”, “shahar” kabi makonlar individual xotira bilan bir qatorda kollektiv xotirani ham tashiydi. Bunday makonlarda shaxs o‘zini faqat alohida “men” sifatida emas, ma’lum bir “biz”ning tarkibiy qismi sifatida anglaydi. Milliy adabiyotda tarixiy joy nomlari, ziyoratgohlar, qadimiy shaharlar, daryo va tog‘ obrazlari ko‘pincha kollektiv identitetning madaniy belgilariga aylanadi. Shu nuqtayi nazardan, makoniy identitet shaxsiy, milliy va madaniy identitet shakllarini bir-biri bilan bog‘lovchi oraliq kategoriya sifatida ham qaralishi mumkin.

**Xulosa**

Makoniy identitet badiiy adabiyotda makon va o‘zlikning o‘zaro ta’sirini izohlovchi muhim nazariy kategoriya sifatida qaralishi mumkin. U shaxsning muayyan joyga mansubligini ifodalash bilangina cheklanmaydi; xotira, qadriyat, ruhiy holat, ijtimoiy farq, syujet harakati va o‘zlikning transformatsiyasini yagona semantik maydonda birlashtiradi. Shu sabab badiiy makonni voqealar uchun neytral fon sifatida talqin qilish qahramon identitetining muhim qatlamlarini e’tibordan chetda qoldiradi.

Tadqiqot natijasida badiiy adabiyotda makoniy identitetning yetti asosiy funksiyasi ajratildi: identifikatsion, mnemonik, aksiologik, psixologik-emotsional, narrativ-kompozitsion, chegaraviy-differensial va transformativ funksiyalar. Uy, Vatan, mahalla, shahar, yo‘l, chegara hamda g‘urbat kabi makon modellari mazkur funksiyalarni turli nisbatlarda amalga oshiradi. Ayniqsa uy va Vatan o‘zlikning davomiyligi va mansublikni, yo‘l va chegara o‘zgarish hamda sinovni, g‘urbat va begona shahar esa identitetning beqarorlashuvi va qayta qurilishini ifodalaydi.

Shu asosda makoniy identitetni qahramon yoki lirik subyektning tayyor, o‘zgarmas belgisi sifatida emas, balki makon bilan bo‘ladigan doimiy munosabatda shakllanadigan dinamik poetik jarayon deb baholash mumkin. Bunday yondashuv o‘zbek adabiyotidagi Vatan va g‘urbat, uy va yo‘l, qishloq va shahar, markaz va chekka singari makoniy oppozitsiyalarni yangi nazariy nuqtayi nazardan tadqiq etish, shuningdek, milliy, shaxsiy va madaniy identitet shakllarining badiiy makon bilan aloqasini yanada chuqurroq ochish imkonini beradi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati**

1. Proshansky H.M., Kaminoff R. Place-identity: Physical world socialization of the self // Journal of Environmental Psychology. – 1983. – Vol. 3, No. 1. – P. 57–83.

2. Tuan Yi-Fu. Space and Place: The Perspective of Experience. – Minneapolis: University of Minnesota Press, 1977. – 235 p.

3. Bachelard G. The Poetics of Space / trans. by Maria Jolas. – Boston: Beacon Press, 1994. – 241 p.

4. Relph E. Place and Placelessness. – London: Pion, 1976. – 156 p.

5. Lefebvre H. The Production of Space / trans. by Donald Nicholson-Smith. – Oxford: Blackwell, 1991.

6. Bakhtin M.M. Forms of Time and of the Chronotope in the Novel: Notes toward a Historical Poetics // The Dialogic Imagination: Four Essays / ed. by M. Holquist; trans. by C. Emerson and M. Holquist. – Austin: University of Texas Press, 1981. – P. 84–258.

7. Westphal B. Geocriticism: Real and Fictional Spaces / trans. by Robert T. Tally Jr. – New York: Palgrave Macmillan, 2011. – 192 p.

8. Tally R.T. Jr. Spatiality. – London; New York: Routledge, 2013. – 192 p.

9. Quronov D. Adabiyot nazariyasi asoslari. – Toshkent: Akademnashr, 2018. – 480 b.

10. Quronov D., Mamajonov Z., Sheraliyeva M. Adabiyotshunoslik lug‘ati / D. Quronov umumiy tahriri ostida. – Toshkent: Akademnashr, 2010. – 400 b.